

BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI DARSLARIDA NOAN'ANAVIY USLUBLAR

Umida Xayrullayeva

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti

1-bosqich talabasi

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 04.01.2026

Revised: 05.01.2026

Accepted: 06.01.2026

KALIT SO'ZLAR:

*boshlang'ich sinflar,
interfaol metodlar, nutq
ko'nikmalarini
rivojlantirish, ta'lim
jarayoni, multimedia
texnologiyalari, chet tili
o'qitish*

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflardao'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun ingliz tili darslarini samarali tashkil etishda noan'anaviy uslublarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy metodika talablari asosida dars jarayonini qiziqarli, ijodiy va motivatsion tarzda tashkil etish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan

Bugungi globallashuv davrida chet tillarini o'qitish masalasi har bir ta'lim bosqichida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga chet tilini o'rgatish jarayonida ularning yosh psixologik xususiyatlariga mos tarzda tashkil etilishi zarur. An'anaviy o'qitish uslublari bilan bir qatorda o'yinlar, interfaol mashg'ulotlar, multimedia texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning qiziqishini oshirib ularni faol o'rganishga undaydi. Shu bois, ushbu maqolada ingliz tili darslarida noan'anaviy uslublardan foydalanishning samaradorligi, ularning o'quvchi faoliyatiga ta'siri va amaliy ahamiyati yoritiladi.

Jahonda globallashuv jarayonlarini tezlashtirish, erkin bozor munosabatlariga o'tish va ishlab chiqarishga yuqori texnologiyalarni joriy etishning rag'batlantirilishi 'lingvistik kapital' ga ya'ni chet tillarini (ayniqsa, ingliz tilini) mukammal egallagan mutaxassislarga ehtiyojni kuchaytirmoqda. 2013-yil Moskva (Rossiya)da «Chet tillarni o'qitish nazariyasi va amaliyoti: an'analar va innovatsiyalar» mavzusida o'tkazilgan xalqaro konferensiyada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tili o'qitish metodikasining dolzarb muammolari muhokama etildi. Yuqorida qayd etilgan seminar va konferensiyalarda boshlang'ich ingliz tili ta'limida sifat va samaradorlikni ta'minlash yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqildi. Sir emaski, boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitish metodikasi o'qituvchidan ijodkorlik, pedagogik mahorat va zamonaviy yondashuvlarni talab etadi. Chunki bu yoshdagi bolalar o'yin orqali o'rganishga moyil bo'ladi, e'tibor va xotirasi qisqa muddatli bo'lganligi sababli darslarda turli interaktiv mashg'ulotlar, rasmlar qo'shiqlar, she'rlar va rolly o'yinlar keng qo'llanilishi kerak.

1. O'quv jarayonida o'yin texnologiyalari.

O'yin texnologiyalari o'quv jarayonini yanada qiziqarki va samarali qilish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

2. Adabiyot orqali o'rganish

Adabiyot orqali o'rganish o'quvchilarning til ko'nikmalarini, madaniy tushunchalarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

3. CLIL orqali o'rganish

CLIL (Content and Language Integrated Learning) — bu o'quvchilarning til ko'nikmalarini va predmet bo'yicha bilimlarini bir vaqtning o'zida rivojlantirishga qaratilgan o'qitish usuli.

4. Multfilmlar orqali o'rganish

Ma'lumki, bolalar turli xil multfilmlar ko'rishga qiziqadi. Ingliz tilidagi multfilmlarni ko'rish jarayonida esa, multfilmdagi gaplarni tushunmasa-da, multfilm qahramonlarining harakati orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga intiladi. Bu esa bolalar uchun qiziq va til o'rganish uchun samarali yo'l

5. Axborot texnologiyalaridan foydalanish.

Bugungi kunda ingliz tili darslarida Hotpotatoes, Quiziz, Kahoot, Wordwall, Learning Apps kabi onlayn platformalardan foydalanish o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va ularni faol ishtirokchi qiladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatishni majburiyat bilan emas, aksincha, qiziqarli o'yinlar va innovatsion metodlardan foydalangan holda olib borishi, ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda o'qituvchi o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda o'yinli va interaktiv metodlardan keng foydalanishi zarur. Innovatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish esa darslarni samarali, qiziqarli va esda qolarli qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmedova SH. «Chet tillarini o'qitish metodikasi», Toshkent: O'qituvchi, 2019
2. Qurbonaliyeva N. «Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitishning innovatsion usullari», Toshkent
3. Tajibayev G.SH. «Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitish», Namangan-2019
4. A.A.Haydarov «Tillarni o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyalari», Buxoro-2022